

NAVOIY IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI

Nozimaxon Maxammadaliyeva

Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051415>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha chet elda olib borilgan tadqiqodlar hamda qator olimlar tomonidan o‘rganilgani qayd etiladi. Bugungi kunda ijodiy merosi yuzasidan G‘arb tadqiqotchilari orasida keng qiziqish bildirilgan. Navoiy asarlari tahlil ostiga olingan.

Annotation

The present article highlights that the works of Alisher Navoiy have been the subject of scholarly research abroad and have been examined by a number of researchers. At present, his literary heritage has attracted considerable attention among Western scholars. His works have been subjected to detailed academic analysis.

Kalit so‘zlar

Alisher Navoiy ijodi, G‘arb adabiyoti, Navoiy asarlari, poetika, lirika, turkiy til.

Key words

Alisher Navoiy’s works, Western literature, Navoiy’s works, poetics, lyric poetry, turkic language.

Markaziy Osiyo adabiy tafakkuri tarixida alohida o‘rin egallagan Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, balki butun turkiy xalqlar madaniyatining yuksak namoyandasi sifatida e‘tirof etiladi. Uning boy va serqirra ijodiy merosi asrlar davomida Sharq ilmiy muhitida chuqur o‘rganib kelingan bo‘lsa, bugungi kunda G‘arb adabiyotshunosligida ham tobora ortib borayotgan qiziqish obyektiga aylanmoqda. Zamonaviy global ilmiy makonning kengayishi, madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishi natijasida Navoiy ijodi milliy chegaralardan chiqib, jahon adabiy merosining ajralmas qismi sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, uning insonparvarlik, adolat, axloqiy poklik kabi umuminsoniy g‘oyalari G‘arb tadqiqotchilari tomonidan keng tahlil qilinmoqda.

Navoiy ijodining xorijda o‘rganilish jarayonini tizimli ravishda tahlil qilish, G‘arb olimlarining ilmiy qarashlarini umumlashtirish va uning jahon adabiyotidagi o‘rnini aniqlashdan keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganligi quvonarli, albatta.

G‘arb olimlari orasida Navoiyning til masalasidagi xizmatlari alohida e‘tirof etiladi. Amerikalik tarixchi Maria Subtelny o‘z tadqiqotlarida Navoiyni “madaniy siyosat arbobi” sifatida talqin qilib, uning turkiy tilni davlat va adabiyot tili darajasiga ko‘targanini ta’kidlaydi. Shuningdek, Devin DeWeese Navoiyning diniy va madaniy jarayonlardagi rolini o‘rganib, uning ijodi islomiy madaniyat va turkiy an‘analar uyg‘unligining yorqin namunasi ekanini qayd etadi.

Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi dastlabki bosqichi tarjima va tanishtirish jarayoni hisoblanadi. Navoiy ijodining G‘arbda o‘rganilishi dastlab tarjimalar orqali boshlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa sharqshunoslari Sharq adabiyotiga katta qiziqish bildirgan davrda Navoiy asarlari ham ilmiy muomalaga kirib keladi. Bu bosqichda asosiy e‘tibor, Navoiy asarlarining mazmuni bilan tanishtirish, chig‘atoy tilining xususiyatlarini o‘rganish, Sharq poetik an‘analarini tushuntirish, mazkur davr tarjimalari mukammal bo‘lmasa-da, ular Navoiy ijodining G‘arb ilmiy muhitiga kirib borishida muhim o‘rin tutdi. Keyingi bosqichlarda filologik va lingvistik tahlillar katta ahamiyat kasb etgan. Navoiy ijodi chuqurroq ilmiy tahlil qilina

boshladi. G‘arb olimlari uni faqat shoir sifatida emas, balki tilshunos va adabiy islohotchi sifatida ham o‘rgandilar. Mashhur sharqshunos Yevgeny Bertels Navoiyni “turkiy adabiyotning eng yirik vakillaridan biri” sifatida baholab, uning ijodini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. U Navoiyning adabiy tilni rivojlantirishdagi xizmatlarini yuqori baholagan.

Zamonaviy tadqiqotlarda uning asarlari faqat badiiy matn sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida tahlil qilinmoqda. Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishida tarjimalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Biroq tarjima jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi:

tasavvufiy terminlarning murakkabligi;
poetik shakllarning boshqa tilga mos kelmasligi;
milliy obrazlarning to‘liq aks etmasligi.

Shunga qaramay, tarjimalar orqali Navoiy ijodi jahon miqyosida keng tarqaldi va ilmiy tahlil obyektiga aylandi.

Navoiyning poetikasi murakkab va chuqur mazmunga ega bo‘lib, u Sharq adabiy an‘analarini yangi bosqichga olib chiqqan.

Navoiyning “Xamsa” asari G‘arb tadqiqotchilari tomonidan alohida e‘tibor bilan o‘rganilgan. Bu asar:

epik tafakkurning yuksak namunasi;
falsafiy va axloqiy g‘oyalar majmui;
Sharq adabiyotining durdonasi.
sifatida baholanadi.

Ayniqsa, chet el olimlari tomonidan “Saddi Iskandariy” dostoni orqali Iskandar obrazining talqini keng tahlil qilingan. Bugungi kunda Navoiy jahon adabiyotining muhim vakillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

Uning ijodi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy ko‘prik, umuminsoniy g‘oyalar ifodasi, adabiy taraqqiyotga kuchli ta‘sir manbai hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar uning asarlarining chuqur falsafiy mazmunini, poetik mukammalligini va umuminsoniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Uning merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, kelajak ilmiy tadqiqotlari uchun muhim manba bo‘lib qolmoqda.